

## TIKUVCHILIK VA TIKUV MASHINASI TARIXI

*O'rinova Rohila**Kosonsoy tuman 1-son kasb-hunar  
Maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tikuvchilik va tikuv mashinasining yaratilish tarixi xususidagi fikrlar ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** tikuvchilik, asbob-anjomlar, tikuv mashinasi, choklar, bichiqchilik.

**Аннотация:** В этой статье представлены моменты из истории создания швейной и швейной машины.

**Ключевые слова:** шитье, инструменты, швейная машина, швы, стежки.

**Annotation:** this article expresses thoughts on the history of the creation of sewing and sewing machine.

**Keywords:** sewing, tools, sewing machine, stitches, wristwatches.

## KIRISH

Tikuvchilik — kasb-hunar turi; kiyim-kechak: ko'rsa-to'shak va boshqa buyumlarni tikish kasbi. Tikuvchilik vositalari, material va texnikasi turli davrlarda turli xalqlarning moddiy va madaniy saviyasi, iqlim sharoiti, ehtiyoj va imkoniyatlari, urf-odatlarini zaminida taraqqiy etgan (qarang Kiyim). Arxeologik qazishlar natijasida jaxonning turli mamlakatlari hududidan topilgan tikuvchilik vositalari, kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlari bu kasbning barcha xalqlarda qadimdan mavjudligi, o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini o'taganligini ko'rsatadi. Tikuvchilik buyumlari dehqonchilik bilan shug'ullanadigan xalqlarda ko'proq o'simlik tolalaridan to'qilgan gazlamalardan, chorvador xalqlarda aksariyat jun gazlama va teridan tikilgan. 19-asrgacha barcha xalqlarda, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarida ham tikuvchilik ishlari qo'lda bajarilgan. Ba'zi sohalarda bu kasb namunalari yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan (mas., gulko'rsa, zarbof to'n, choyshab, jiyak va h.k.). Turli davrlarda tikuvchilikdan mustaqil kasb sifatida etikdo'zlik, mahsido'zlik, po'stindo'zlik, do'ppido'zlik, kashtado'zlik, gilamchilik va boshqa ko'plab kasb turlari ajralib chiqqan. 19-asr 2-yarmidan Yevropa mamlakatlarida tikuvchilikda maxsus tikuv mashinalari keng qo'llanila boshladi, keyin boshqa hududlarga, shu jumladan, O'zbekistonga ham tarqaldi (qarang Tikuv mashinasi). Tikuvchilik taraqqiyotining hamma davrlarida bichiqchilik uning ajralmas qismi bo'lgan. O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda tikuvchilik hunarmandchilikdan yengil sanoatning yirik tarmog'iga aylandi. Zamonaviy texnika bilan uskunalangan korxonalar tashkil etildi,

mahalliy tikuvchi, kosib va boshqa hunarmandlar tikuvchilikning yangi texnikasini o'zlashtirdilar.

### ASOSIY QISM

Kiyim tikish jarayonining qiyinligi XVII asr o'rtalariga kelib tikuv mashinasini yaratishga urinishlarga olib keldi. Tikuv mashinasiga birinchi patent 1755-yil Angliyalik Ch.V.Veyzentalgga berilgan. Bu mashina oddiy qo'l chokiga o'xshash chok tikardi. 1790-yilda uning vatandoshi Tomas Sent zanjir chok tikadigan mashina uchun patent oldi Bu mashina oyoq kiyimlar (poyafzal) tikish uchun ishlatilardi, mashina qo'l bilan harakatga keltirilardi, material ham qo'l bilan igna tomon yo'naltirib turilardi. Tikuv mashinasi yaratilishida asosiy voqealar XIX asrdagina yuz berdi, 1814-yilda tirollik tikuvchi Iosif Medersberger Ch.V. Veyzentel yaratgan ignadan foydalanib, yangi mashina yaratdi. Bu mashina ignasi uchlari galma-gal materialga kirgizilardi. Bu albatta ancha noqulay edi, tikilayotgan ip 45 sm uzunlikda edi, ip tugaganda mashina to'xtatilib, boshqa ip o'tkazilardi, bu esa albatta ish unumdorligini pasaytirardi. Tomas Sent yaratgan zanjir chok tikadigan mashina Bu mashinalar mukammal bo'lmasa ham, ularning egalariga ancha - muncha foyda keltirdi. Fransiyalik tikuvchi Bartolomey Timone 1830-yili tikuv mashinasining yana bir variantini yaratdi va butun bir ustaxonaga asos soldi. Unda 80 ta yog'ochdan ishlangan tikuv mashinalarida askarlar kiyimlari tikilardi. Bu mashinalar zanjir chok tikardi. Bu ustaxona egasiga anchagina daromad keltirdi-yu, lekin faoliyati uzoqqa cho'zilmadi, o'nlab ishsiz qolgan tikuvchilar, ishdan bo'shatilganlar bir kuni ustaxonaga bostirib kirdilar va hamma mashinalarni sindirib tashladilar. B.Timonening o'zi esa Angliyaga ko'chib ketishga majbur bo'ldi. 1845-yilda Amerikalik Ellios Xou mokili mashinani ixtiro qildi (Lekin, uning ham ancha - muncha kamchiliklari bor edi: sekin ishlardi, gazlama transportyor lenta orqali faqat to'g'ri chiziq bo'yicha yurgizilardi. Shunga qaramay bu mashina Angliyada keng tarqaldi, keyinchalik bu mashina bir muncha takomillashtirildi. Keyingi muhim qadam amerikalik nemis I.M. Zinger tomonidan amalga oshirildi. Material g'ildirak orqali suriladigan mexanizm hozirgi kunga qadar charm buyum tikadigan mashinalarda foydalaniladi. 1852-yilda injener A.Vilson gazlamani suruvchi mexanizmni ixtiro qildi. Zanjir chok tikadigan mashinalar unchalik muvaffaqiyat qozonmadi, chunki chok osongina so'kilib ketardi. Shuning uchun ham mokili mashinalar tikuvchilarning talablariga ko'proq javob berardi. Ixtirochilardan amerikalik I.M. Zinger omadliroq chiqdi, uning 1849-yilda yaratgan mashinasi germaniyalik fabrikachilarni qiziqtirib qoldi, bu mashinaning Germaniya tikuvchilik sanoatida qo'llanishi tikuvchilik ishida katta to'ntarish bo'ldi 1853-yilda E.Xou yaratgan mokili tikuv mashinasi. 1881-yilda ishlab chiqarilgan mokili tikuv mashinasi 1873-yilda Viller va Vilson Venadagi tikuv mashinalarining jahon ko'rgazmasida yangi mashinani namoyish qildilar. Bu mashinaning choki juda sifatli bo'lib, katta muvaffaqiyat qozondi. Hatto I.M. Zinger mashinasi ham bunday raqobatga chiday

olmadi. O‘z navbatida I.M. Zinger ham yangi takomillashgan mashinani ishlab chiqardi. 1854-yili I.M. Zinger tikuv mashinalarining hamma patentlarini sotib oldi va o‘zining kompanoni Dark bilan birga AQSh da tikuv mashinalari ishlab chiqara boshladi va butun dunyoga mashhur bo‘lib ketdi. 1890-yili Zinger firmasi Podolskda mashina zavodini ishga tushirdi, bu yerda mashina yig‘ilardi xolos, barcha detallar Germaniyada tayyorlab olib kelinardi. O‘shandan buyon juda ko‘p universal va maxsus tikuv mashinalar: qo‘l mashina, oyoq yuritmal mashina, elektr yuritmal mashinalar, elektron boshqaruvli mashinalar, yarim avtomat va avtomat mashinalari yaratildi. Hozirgi kunda vazifasi va tuzilishi jihatidan turli xil bo‘lgan, fan va texnikaning oxirgi yutuqlariga asoslangan holda yaratilgan, zamonaviy texnologiya talablariga javob beradigan, avtomatlashtirilgan va elektron boshqaruvli tikuv mashinalari ishlab chiqarilmoqda, ulardan foydalanish sohalari ham kengayib bormoqda, oddiy chokdan tashqari ular turli zanjir choklar, siniq choklar, yo‘rma choklar, yashirin bukma choklar tikadi, qaviydi, tugma qadaydi, petlyalar ochadi, applikatsiya va kashtalar tikadi, kiyimlarning mayda detallarini tayyorlab beradi.

### **XULOSA**

Hozirgi vaqtda tikuvchilik ishlab chiqarishi juda keng tarmoq bo‘lib, unda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning ilg‘or vositalaridan, kompyuter texnikasidan, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi tikuvchi mutaxassislardan yuqori bilimli bo‘lishni, mahorat va malaka orttirishni talab qiladi. Tikuvchilik korxonalarini uchun mutaxassis ishchilar tayyorlashda o‘rta professional ta‘lim sifati muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilar kiyimlarni yakka buyurtma asosida va ommaviy tarzda ishlab chiqarishda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab, zamonaviy asbob-uskunalar va moslamalardan foydalangan holda barcha talablarga javob beradigan tikuvchilik mahsulotlarini tayyorlashni bilishi zarur. Demakki, ko‘plab tadbirlarni tikuv mashinalarini ishlatmasdan tasavvur qilish mumkin emas - bu ham ulkan ishlab chiqarish uskunasi element, ham u yerdan foydalanish uchun kichik qurilmalar sifatida.

### **ADABIYOTLAR**

1. Jabborova M.Sh. «Tikuvchilik texnologiyasi», Toshkent «O‘qituvchi» 1989.
2. Исаев В.В. «Оборудование швейных предприятий», Москва «Легкая индустрия» 1980.
3. Isayev V.V. «Tikuvchilik korxonalarining uskunalarini» Toshkent «O‘qituvchi» 1986.
4. Isayev.V.V., Frans V.Ya. «Tikuv mashinalarining tuzilishi va remonti» Toshkent «O‘qituvchi » 1990.
5. Olimov.Q va b. «Tikuv mashinalari», T.; «Uzinkomsentr» 2002.
6. Вальщиков Н.М. и др. «Оборудование швейного производства» М. «Легкая индустрия» 1977.